



Sug‘urta bozorining rivojlanishida
Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining o‘rni

Baratova Dinora Alisherovna

“Soliqlar va sug‘urta ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
dinora.baratova@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan, sug‘urta bozorini rivojlantirish bo‘yicha olib borgan ishlari haqidan yoritilgan. Shu bilan birga aholining sug‘urta faoliyatiga doir murojaatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sug‘urta bozori, sug‘urta, sug‘urta bozori rivojlantirish agentligi, sug‘urta tashkilotlari, sug‘urta huquqi, sug‘urta shartnomalari, sug‘urta qoplamalari, murojaatlar, sug‘urta bozori ishtirokchilari

Milliy sug‘urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash, sug‘urta xizmatlarining talab yuqori bo‘lgan yangi turlarini joriy etish, iste’molchilarining sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturiga muvofiq: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 2 avgustdaggi PQ-4412-sun qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligini (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi maqullandi.

2019 yil 2 avgustdaggi PQ-4412-sun qarori qabul qilingan qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1060-sun qarori qabul qilindi. Ushbu agentlik sug‘urta bozorini tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha vakolatli davlat organi bo‘lib, sug‘urta munosabatlarining barcha ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

Agentlik – sug‘urta bozorini tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha vakolatli davlat organi, Moliya vazirligining sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish qismidagi barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha uning huquqiy vorisi hisoblanadi.

Agentlikning asosiy vazifalari bo‘lib sug‘urta bozorining ishlashi va uning professional ishtirokchilari faoliyati ochiqligi va shaffofigini, shu jumladan sug‘urta faoliyati sohasidagi statistik va moliyaviy ko‘rsatkichlarni muntazam e’lon qilish yo‘li bilan ta’minlash;



sug‘urta xizmatlari, iste’molchilari va sug‘urta munosabatlarining boshqa ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, aholining sug‘urta bozoriga ishonchini oshirishga va jamiyatda sug‘urta madaniyatini rivojlantirishga ko‘maklashish kiradi.

Yuqoridagi vazifalar doirasida Agentlik fuqorolar tomonidan berilayotgan murojaatlarini o‘rganib unga ijobjiy yechim topadi.O’zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g’risida”gi Qonuni hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-4904-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan Agentlik tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga ko‘ra, tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. 2022yil davomida mamlakatimizning barcha hududlaridan jami 1897 ta kelib tushgan bo‘li b, shulardan 76 tasi yuridik shaxslar va 1821 ta jismoniy shaxslar xissasiga to‘g‘ri keladi. Murojaatlarning 670 tasi ixtiyoriy sug‘urta, 1144 tasi majburiy sug‘urta turlariga tegishli bo‘lsa, 83 tasi boshqa masalalarga tegishli ekanligi aniqlandi.

1-jadval	Sug‘urta turlari	bo‘yicha	murojaatlar	soni ⁸
	1 144 ta (60,3%)	Majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha		
	670 ta (35,3%)	Ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha		
	83 ta (4,4%)	Sug‘urtaga aloqasi bo‘lmagan masalalar		



1 144 ta (60,3%)

Majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha



670 ta (35,3%)

Ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha



83 ta (4,4%)

Sug‘urtaga aloqasi bo‘lmagan masalalar

Fuqorolar tomonidan sug‘urta kompaniyalarining faoliyati bo‘yicha turli yo’llar orqali murojaat qilishmoqda. Ular quydagi jadvalda keltirib o’tilgan. Murojaatlarning aksariyat qismi Prezident Administratsiyasi orqali kelib tushgan. Agentlikning o’ziga bo’lgan murojaat 5.5%ni tashkil qiladi.

Murojaatlarning kelib tushishi manbalariga ko‘ra murojaatlar quydagi ko‘rinishga ega.

⁸ www.mf.uz. Moliya Vazirligining rasmiy saytidan olingan.



Манбалар	Кўрсаткичлар
Prezident Administratsiyasi orqali	1 602 ta (84,4%)
Prokuratura organlari orqali	139 ta (7,3%)
Agentlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat	104 ta (5,5%)
Moliya vazirligi orqali	17 ta (0,9%)
Adliya vazirligi orqali	11 ta (0,6%)
Vazirlar Mahkamasi orqali	5 ta (0,3%)

Xududlar kesimida murojaatlarni kelib tushishi quydagи ko’rinishga ega.

3-jadval¹⁰

Hududlar	Murojaatlar soni	Foiz ko‘rsatkichi
Toshkent shahri	543 ta	28,6%
Toshkent viloyati	301 ta	15,9%
Navoiy viloyati	112 ta	5,9%
Farg‘ona viloyati	104 ta	5,5%
Jizzax viloyati	97 ta	5,1%
Samarqand viloyati	96 ta	5.1%
Qoraqalpog‘iston Resp.	94 ta	5.0%
Sirdaryo viloyati	91 ta	4.8%
Qashqadaryo viloyati	88 ta	4.6%
Andijon viloyat	83 ta	4.4%
Buxoro viloyati	76 ta	4.0%
Namangan viloyat	58 ta	3.1%
Xorazm viloyati	43 ta	2.3%

⁹ www.mf.uz. Moliya Vazirligining rasmiy saytidan olingan.

¹⁰ www.mf.uz. Moliya Vazirligining rasmiy saytidan olingan.



JAMI	1897 ta	100.0%
------	---------	--------

Jadval ma'motlariga ko'ra xududlar bo'yicha murojaatlarning aksariyat qismi Toshkent shahriga to'g'ri keladi.

Mazkur murojaatlar Agentlik tomonidan tegishli tartibda ko'rib chiqilib, shulardan **910 ta** murojaat sug'urta tashkilotlari tomonidan ijobiylar hal qilingan o'z vaqtida to'lanmasdan kelinayotgan holatlar bo'yicha **8 753,3 mln. so'm** miqdorida sug'urta qoplamasini to'lab berilishi ta'minlandi.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan murojaatlarning **199 tasi** yuzasidan shartnomalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli qonunchilikda belgilangan tartibda rad javobi berilgan, **703 ta** murojaatdagi masala va muammolar yuzasidan esa huquqiy tushuntirishlar berilgan. Ayni paytda esa **85 ta** murojaatlar ko'rib chiqilmoqda.

Sug'urta sohasiga tegishli bo'lган har bir qonun va qarorlarning mazmun mohiyati, uning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan, iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar yuzasidan Agentlik mas'ul xodimlarining interv'yulari OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda jamoatchilikka taqdim qilinmoqda.

Shuningdek, Agentlik tomonidan tasdiqlangan reja dasturga asosan sug'urta tashkilotlarining rahbarlari ishtirokida Qoraqolpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, Xorazm, Andijon, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Toshkent, Sirdaryo va Samarcand viloyatlari aholisi va tadbirkorlarining sug'urta masalalari bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqish, ularni hal etish va huquqiy maslahatlar berish maqsadida sayyor qabullar o'tkazildi.

O'tkazilgan sayyor qabul jarayonida **15 ta** jismoniy va **14 ta** yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilib, sug'urta kompaniyalari tomonidan turli sabablarga ko'ra sug'urta to'lovlari kechiktirilayotgan **7 ta** holat bo'yicha jami **87,2 mln so'm** sug'urta qoplamlari to'lovi amalga oshirildi. Qolgan **19 ta** holat bo'yicha tegishli tartibda huquqiy tushuntirishlar berildi.

Bu shuni ko'satadiki sug'urta faoliyatida olib borilayonuan islohatlar aholining ijtimoiy va iqsodisodiy ahvolini yaxshilash uchun qaratilgan.

Adabiyotlar.

- 1.Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashing metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya.-Toshkent, Iqtisodiyot, 2021.
2. Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta texnologiyalari. Darslik. -Toshkent, Iqtisodiyot, 2021.
3. D.A.Baratova-O'zbekistonda tibbiy sug'urtalash tizimini takomillashtirish Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№3/2 (99)
4. Khayrullo Nasrullahovich Khasanov, Dinora Alisherovna Baratova, Khusniddin Fakhreddinovich Uktamov, Dildora Bokhodirovna Abdusattarova [Improving the Practice of](#)



Attracting Financial Resources from the International Capital Market to the Corporate Sector of the Economy. The 5th International Conference on Future Networks & Distributed

5. Xacahov.X.H *IMPROVING THE MECHANISMS OF INVESTIGATION OFFINANCIAL RESOURCES FROM THE CAPITAL MARKET TO THE CORPORATE SECTOR* “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 1/2023, yanvarfevral (№ 00063)

6. Dinora Baratova, Khayrullo Khasanov, Ikromjon Musakhonzoda, Shokhruh Abdumuratov and Khusniddin Uktamov. *The impact of the coronavirus pandemic on the insurance market of Uzbekistan and ways to develop funded life insurance.* E3S Web of Conferences 296, 06028 (2021).

https://www.e3sconferences.org/articles/e3sconf/abs/2021/72/e3sconf_esmgt2021_06028/e

7. www.mf.uz.

8. www.stat.uz.